



THE ROLE OF NATURAL TOURIST OBJECTS LOCATED IN UZBEKISTAN IN TOURISM DEVELOPMENT

Mashrab Rustamovich Usmanov

Doctor of Philosophy (PhD) in Geographical Sciences

Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

Email: mashrabusmonov79@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

Nazarbek Khudoyberdiyev

2nd-year student, Department of Geography

Jizzakh State Pedagogical University

Email: nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

Shahriyor Shavkatovich Shavkatov

2nd-year student, Department of Geography

Jizzakh State Pedagogical University

Email: Shahriyeyeer@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

Gavhar Saidqulova

2nd-year student, Department of Geography

Jizzakh State Pedagogical University

Email: saitqulovagavhar343@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: attention paid to the development of tourism, decisions and decrees on the development of tourism, the number of archaeological monuments, architecture (historical monuments and shrines) and monumental and interesting places, geological-geomorphological, hydrological and biological tourist sites, opportunities for the development of religious and archaeological tourism, hadith studies and Islamic knowledge, cultural ethnographic tourism, festivals, foreign tourists and tourism prospects.

Abstract: This article provides information on the decisions and decrees of our President Sh.M. Mirziyoyev on the development of tourism, archaeological monuments, architecture (historical monuments and shrines), and monumental and interesting places located in our Republic, which are of great importance in the tourism prospects of our country, geological-geomorphological, hydrological and biological tourist sites, opportunities for the development of religious and archaeological tourism in our country, scholars who have made a significant contribution to the development of hadith studies and Islamic

Received: 02.02.25

Accepted: 04.02.25

Published: 06.02.25

knowledge on a global scale, opportunities for the development of cultural ethnographic tourism, festivals held in our republic, proposals and recommendations on foreign tourists visiting our republic, and tourism prospects.

O'ZBEKISTONDA JOYLASHGAN TABIIY TURISTIK OBYEKTЛАRNING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Mashrab Rustamovich Usmanov

Jizzax davlat pedagogika universiteti

geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

mashrabusmonov79@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

Nazarbek Xudoyberdiyev

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

e-mail: nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

Shahriyor Shavkatovich Shavkatov

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

e-mail: Shahriyeyev@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

Gavhar Saidqulova

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

e-mail: saitqulovagavhar343@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, turizmni rivojlantirishga oid qaror va farmonlar, arxeologiya yodgorliklari, arxitektura (tarixiy obida ziyoratgohlar) va monumental hamda diqqatga sazovor joylar soni, geologo-geomorfologik, gidrologik va biologik turistik ob'ektlari, diniy va arxeologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, hadisshunoslik va islomiy bilimlar, madaniy etnografik turizm, festivali, xorijiy sayyohlar va turizm istiqbollari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan turizmni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari, Respublikamizda joylashgan arxeologiya yodgorliklari, arxitektura (tarixiy obida ziyoratgohlar) va monumental hamda diqqatga sazovor joylar mavjud bo'lib bular mamlakatimiz turizm istiqbolida katta ahamiyatga ega ekanligi, geologo-geomorfologik, gidrologik va biologik turistik ob'ektlari, yurtimizda diniy va arxeologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, hadisshunoslik va islomiy bilimlarning jahon miqyosida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan allomalar, madaniy etnografik turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari, respublikamizda o'tkaziladigan festivali, respublikamizda

**РОЛЬ ПРИРОДНЫХ ТУРИСТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ, РАСПОЛОЖЕННЫХ В
УЗБЕКИСТАНЕ, В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА****Машираб Рустамович Усманов***Доктор философии (PhD) по географическим наукам, доцент**Джизакский государственный педагогический университет**Электронная почта: mashrabusmonov79@gmail.com**Джизак, Узбекистан***Назарбек Худойбердиев***Студент 2 курса, направление «География»**Джизакский государственный педагогический университет**Электронная почта: nazarbekxudoyberdiyev08@gmail.com**Джизак, Узбекистан***Шахриёр Шавкатович Шавкатов***Студент 2 курса, направление «География»**Джизакский государственный педагогический университет**Электронная почта: Shahriyeyeer@gmail.com**Джизак, Узбекистан***Гавхар Саидкулова***Студентка 2 курса, направление «География»**Джизакский государственный педагогический университет**Электронная почта: saitqulovagavhar343@gmail.com**Джизак, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Внимание, уделяемое развитию туризма, решениям и указам о развитии туризма, количеству археологических памятников, архитектурных сооружений (исторических памятников и святынь) и монументальных и интересных мест, геолого-геоморфологическим, гидрологическим и биологическим туристическим объектам, возможностям развития религиозного и археологического туризма, изучению хадисов и исламским знаниям, культурно-этнографическому туризму, фестивалям, иностранным туристам и перспективам туризма.

Аннотация: В данной статье представлена информация о решениях и указах Президента Республики Шри М. Мирзиёева по развитию туризма, археологических памятников, архитектуры (исторических памятников и святынь), а также монументальных и интересных мест, расположенных в нашей Республике, имеющих большое значение для туристических перспектив страны, геологических, геоморфологических, гидрологических и биологических туристических объектов, возможностях развития религиозного и археологического туризма в нашей стране, ученых, внесших значительный вклад в развитие хадисоведения и исламских знаний в глобальном масштабе, возможностях развития культурно-этнического туризма, фестивалях, проводимых в нашей республике, предложениях и рекомендациях по посещению нашей

Kirish. O'zbekiston o'z mustaqilligini mustahkamlash va iqtisodiyotni rivojlantirishda jahon tajribasidan keng foydalanilmoqda. Boshqa sohalar kabi mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan boshlaboq turizmni rivojlantirishga katta ehtibor berildi. Bu o'rinda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 05.01.2019 yildagi PF-5611-son O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Farmoni, "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi", 2021-yil 6 apreldagi PF-6201-son "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini hamda xalqaro umum mavsumiy tog'-chang'i kurortini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish, hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish, qolaversa Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida turizmni rivojlantirish, Xorazm viloyatida turizmni yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish belgilab berilgan edi.

Ma'lumki, BMT ning 1972-yilda qabul qilingan konventsiyasida xalqlarning betakror madaniy yodgorliklarini avaylab asrashga kelishilgan. Hozirgi kunga kelib foydalanishga yaroqli 500 dan ortiq madaniy yodgorliklar o'ziga xos takrorlanmas tarixiy-madaniy ansambillar, arxitektura yodgorliklari tanishuv va diniy turizm istiqbolida ahamiyatlidir.

Respublikamizda hozirgi kunga kelib jami 4778 ta (58.2%) arxeologiya yodgorliklari, 2246 ta (27.3%) arxitektura (tarixiy obida ziyoratgohlar) va 688 ta (8.4%) monumental hamda 502 ta (6.1%) diqqatga sazovor joylar mavjud bo'lib bular mamlakatimiz turizm istiqbolida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tarixiy obidalar, monumental va arxitekturaga xos manzillarga Budda diniga mansub topilmalar, Iskandar Zulqaynarning yurishlari, arablar istilochiligi, mo'g'illar bosqini, Amir Temur va temuriylar imperiyasi va boshqa davrlardan dalolat beruvchi sayyohlik ob'ektlarini tashkil etadi. Bunday arxitektura yodgorliklarining ayniqsa Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida juda yaxshi saqlanib qolingan. Ushbu shaharlardagi arxitektura yodgorliklari o'zining ahamiyati, ko'rinishi va jozibadorligi jihatidan Misr ehromlari, Hindiston, Qadimgi Yunoniston va Rimdagi arxitektura yodgorliklaridan qolishmaydi.

Bundan tashqari mamlakatimizda geologo-geomorfologik, gidrologik va biologik turistik ob'ektlar mavjud bo'lib, ushbu ob'ektlarga Surxandaryo viloyatidagi Boysun tog'larida

joylashgan o'rta paleolitning "Must'e madaniyati" (mil.avv. 100-40 ming yillik)ga taalluqli Teshiktosh g'ori misol bo'ladi. Ushbu g'ordagi topilgan yosh bolaning bosh suyagini o'rganish asosida O'rta Osiyo hozirgi zamon odam tipining shakllanish zonasiga kiradi, degan muhim xulosa chiqarish imkonini beradi. Qadimgi odamlar yashagan tog'larga Samarqand viloyati Omonqo'ton tog'larida joylashgan Omonqo'ton g'ori, Farg'ona vodiysida joylashgan Seling'ur g'orlari ham misol bo'la oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston hududida nafaqat qadimgi tosh asriga xos yodgorliklar saqlanib qolmasdan balki o'ndan keyingi davrlarda ham odamlar u yerda yashagani mahlum. Jumladan, Mezolit davrida (mil.avv. 12-15 ming yillik) da Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarini qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirish davom etgan. 1938-1942 yillarda G.V.Parfenov, 1970-1971 yillarda U.Islomov tomonidan tekshirilgan Machay g'ori bu davrga oid yirik manzilgohlardan biri Sherobod tumani hududidagi Zarautsoy suratlari mezolit davri yoki neolitning boshlariga oid ekanligi aniqlangan. Bunday topilmalar va toshga chizilgan suratlar Samarqand viloyatining Nurota tog'larida ham uchraydi.

Geologo-geomorfologik yodgorliklari Qoratepa tog'ining janubiy yonbag'rida joylashgan Amir Temur g'ori, Chaqilkalon tog'laridagi Kelsi g'ori Qirqtov platosidagi quduqlar, Hisor tog'larida joylashgan qadimgi dinozavrlarning toshga aylangan izlari saqlangan Kitob geologik qo'riqxonasi, Hisor tizmasidagi "Temir darvoza" deb nomlangan Darband tangalari misol bo'la oladi.

Biologik yodgorliklarga Qashqadaryoning vodiysining yuqori qismida joylashgan diometri 12 m. ga yetuvchi Chinor, Surxondaryo vodiysidagi yoshi 100 yildan oshgan chinorlarni, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi 1000 yillik archa, Sh.Rashidov tumanidagi 850 yoshli bobo yong'oq va Forish tumanidagi 2500 yillik Mojrum archasi (sharq biotasi)ni misol qilib ko'rsatish mumkin. Bunday tabiatning nodir yodgorliklari xorijiy sayyohlarda juda katta tahsurot qoldirishiga shubhasizdir.

Mamlakatimiz hududida diniy va arxeologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari yuqori. Jumladan, mamlakatimiz hududi qadimgi odamlar yashagan arxeologik topilmalarga juda boy. Bunday topilmalar uchraydigan joylarga Surxondaryo viloyatidagi Afrosiyob, Xorazm viloyatidagi "Qo'y qirilgan qal'a" hududlarida uchraydi. 1972-yil 26 sentyabrda O'zbekiston arxeologlari tomonidan Surxondaryo viloyatining Dalvarzintepa manzilgohida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, bu yerda umumiy soni 115 ta oltin buyum solingan sapol ko'za topilgan. (umumiy og'irligi 36 kg) oltin bezaklar, taqinchoqlar, mahalliy Grek-Baqtriya zargarlik san'atining namunasi hisoblanadi. Sapollitepada manzilgohida budda diniga mansub qadimgi odamlarning go'rlari topilishi ham O'rta Osiyodan sharq mamlakatlariga budda dinining tarqalganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda buyuk allomalar o'tgan yurtlardan biri hisoblanadi. Bularga hadisshunoslik va islomiy bilimlarning jahon miqyosida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Imom Al-Buxoriy, Al-Farg'oniy, Marg'iloniy, At-Termiziy, Motrudiy va Muhammad Payg'ambarning amakisi (Qusam Ibn Abbos) qo'nim topgan Shohi-Zinda maqbaralari misol bo'ladi. Ushbu buyuk siymolarning qabrlarini ziyorat qilish uchun jahonning ko'pgina davlatlaridan, xususan arab davlatlari va musulmon diniga ehtiqlik qiluvchi ko'p bo'lgan davlatlar ziyoratchilar kelishi istagi borligini bildirmoqdalar. Bu kelajakda diniy turizm bilan bog'liq holda turizmning boshqa turlarini ham tashkil etish va rivojlantirish istiqbollarini belgilaydi.

O'zbekistonda madaniy etnografik turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Respublikamiz xalqlarining to'y marosimlari (qiz chiqarish, kelin keltirish, o'g'il to'yi), o'yinlar-ko'plari, kurash, xo'roz urushtirish, qo'y urushtirish, bayramlari Navro'z, yer haydash, ariq chopish, hosil bayrami va boshqalar jahon xalqlarida katta qiziqish uyg'otadi.

Respublikamiz turli hududlari xalqlarining o'ziga xos o'yinlari mavjud. Bunga Surxondaryo viloyati Boysun tumanida yashovchi aholisining o'yinlari Qashqadaryo viloyati G'ilon qishlog'i aholisining o'yinlari, xorijiy sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Bundan tashqari, har yili respublikamizning Surxondaryo viloyatida o'tkaziladigan "Boysun bahori" festivali, Samarqand shahrida har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro anjumanlari ham bu yerda turizmni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston diyorida yashayotgan xalqlarda milliy hunarmandchilik juda yaxshi rivojlangan. Bularga sapol buyumlarga ishlov berish changkorlik, yog'ochga ishlov berish yog'och o'ymakorligi, zargarlik buyumlari tayyorlash zargarlik, misga ishlov berish misgarlik, milliy kiyimlar - do'ppi tikish, zar chopon tikish va boshqalar ham xorijiy sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Xalqimiz tomonidan tayyorlanadigan shirin taomlar - palov, shashlik, manti, somsa, qozon patir, turli xil shirinliklar holva, parvarda, non yopish Samarqand noni va boshqalar ham xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Shu bilan birga respublikamizda har yili pishib yetiladigan shirin-shakar mevalar (uzum, qovun, torvuz, o'rik va boshqalar)ning shirinligi jahonga mashhur. Shuning uchun respublikamizda kuz oylarida o'tkaziladigan qovun sayli, xorijiy sayyohlarni o'ziga tortadi. Bu esa respublikamizda agroturizmni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Respublikamiz zamini turli xil rangli metallarga boy. Ushbu boyliklarni o'zlashtirish uchun xorijiy investirlarga barcha sharoit yaratilgan (huquqiy, bojxona va boshqalar). Shuning uchun keyingi yillarda respublikamizda xalq xo'jaligining turli sohalari ayniqsa yoqilg'i-energetika rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, formatsevtika, yengil va oziq-ovqat tarmoqlari

bo'yicha ko'plab qo'shma korxonalar qurib ishga tushirilgan. Bu esa respublikamizda tadbirkorlik turizmni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Respublikamizda turizmning barcha sohalarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Jumladan, respublikamizning barcha viloyat markazlarida xalqaro andazalariga javob beradigan aeroportlar, temir yo'l, avtobus bekatlari qurilgan. Mamlakatimiz aeroportlaridan xalqaro va maxalliy reyslarda samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Kelajakda tarixiy shaharlarga to'g'ridan to'g'ri xalqaro qatnovlarni yo'lga qo'yishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Toshkent-Samarqand-Buxoro temir yo'lida tezyurar elektr poezdlari qatnamoqda. Avtomobil yo'llari xalqaro andozalariga mos ravishda ta'mirlanmoqda. Poytaxtimiz Toshkent va barcha viloyat markazlarida xalqaro toifadagi barcha kategoriyadagi mehmonxonalar mavjud va faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamizga xorijiy sayyohlarni yanada ko'proq jalb qilishda, respublikamizning 1994-yildan boshlab turizm bo'yicha tashkil qilinadigan xalqaro yarmarkalarda faol ishtirok etmoqda. Xalqaro turistik yarmarkalari Malayziyada, Benilyuks mamlakatlarida (2008 y.) bo'lib o'tdi. Shuning hisobiga Benilyuks mamlakatlaridan sayyohlarning kelishi 2023-yilda 2024-yilga nisbatan ikki barobar ortdi. Shu bilan birgalikda O'zbekiston milliy turizm kompaniyasi har yili respublikamizda turizm sohasi bo'yicha xalqaro ko'rgazma, yarmarka va anjamlarni o'tkazib kelmoqda. Ushbu anjumanlarga jahonning ko'plab mamlakatlaridan o'zlarining turistik mahsulotlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Qilinayotgan bunday amaliy ishlar, eng muhimi mamlakatimizda hukm surayotgan barqaror tanglik va barqaror iqtisodiy rivojlanish bu yerda kelajakda turizmning yanada kuchliroq rivojlanishiga ijobiy tahsir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda respublikamizda 9 ming kishiga mo'ljallangan kempinglar faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi besh yilda bir vaqtning o'zida 1330 mehmonlarga xizmat ko'rsata oladigan 17 ta katta va o'rtacha kattalikdagi mehmonxonalar qurib ishga tushirildi.

O'zbekiston turizm faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega 350 tadan ortiq tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, shudan 300 tasi xususiy firmalar hisoblanadi. Bugungi kunda turistlarga xizmat ko'rsatishning 90% xususiy turistik firmalar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda kelayotgan xorijiy sayyohlarning 76,2% turistik markazlar - Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlariga to'g'ri kelmoqda. Qolgan 24,6% xorijiy sayyohlar Farg'ona vodiysidagi tarixiy yodgorliklarni ko'rishga qiziqishadi.

Bu esa turizmning moddiy-texnik ba'zasiga ta'sir ko'rsatadi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar tahliliga ko'ra respublikada 40% turizmning ishlab chiqarish quvvati Toshkent shahrida joylashgan, 37% esa Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlariga 16% Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Respublikaning 50% maydonini egallagan boshqa viloyatlarga respublika turistik ishlab chiqarish quvvatining 7% to'g'ri keladi, xolos. Respublikaga

keladigan turistlarning asosiy qismi Germaniya, Frantsiya, Italiya, Yaponiya va Rossiyaga to'g'ri keladi. MDH doirasida xalqaro turizm imkoniyatlari bizningcha yaxshi foydalanilgan emas. Vaholanki, Rossiya Federatsiyasida 22 mln dan ortiq (Indoneziyada 200 mlndan ortik musulmonlar yashaydi) musulmonlar Islom madaniyati va uning rivojlanishiga katta xissa qo'shgan O'zbekistonga tashrifi nihoyatda past. Demak, bu sohada turmarketing izlanishlari olib borish zarur.

Respublika Davlat statistik qo'mitasining bergan mahlumotiga ko'ra hozirgi kunda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining mamlakat yalpi ichki mahsuloti ishlab chiqarishdagi ulushi 0,6 %ni tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 7-9%ni tashkil qiladi. Shuni hisobga olib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimizning boy turistik imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish masalasini qo'ymoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, quyidagi masalalarga e'tibor qaratish turizm istiqbolida muhim ahamiyatga egadir:

- O'zbekistonning geografik o'рни va joylashuvidan kelib chiqqan holda turizm sohasiga o'ziga xos yondoshish;
- tabiiy sharoit va o'ziga xos iqlim xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanishuv, rekreatsiya va dam olish va sog'lomlashtirish maskanlarini kartalashtirish va turist qabul qilish yukini geografik va ekologik baholash;
- qadim tarixi va buyuk kelajagini aks ettiruvchi turistik reklamalarni xilma xil ko'rinishda, turli tillarda yanada ko'paytirish;
- diniy turizm istiqboli yuqoriligini inobatga olib islom diniga ehtiqt qiluvchilar ko'p bo'lgan davlatlar turizm bozorini o'rganish va ularni qiziqtirish;
- "Ochiq osmon ostidagi muzeylar" mavjud hududlarda sharq madaniyati va tsivilizatsiyasini, etnografiyasini, tarixiy va milliy kiyimlarda yurishni (sotuvchilar, hunarmandlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun) yo'lga qo'yish;
- Sog'lomlashtirish va dam olish, kurortlar tizimiga xorijiy sayyohlarni jarb qilish orqali rekreatsiya turizmiga ehtiborni kuchaytirish va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Soliev A.S., Usmonov M.R. "Turizm geografiyasi". – Samarqand, SamDU, 2005. 131 b.
2. Тухлиев Н.Т., Абдуллаева Т. "Национальная модель развития туризма". - Т.: ГНИ "Национальная энциклопедия Узбекистана", 2006. 423с.
3. Ердаuletov С.Р. "География туризма": история, теория, методология, практика. – Алматы. 2000 - 336 с.
4. Usmonov, M. R. (2022). DINIY VA ziyorat turizmini RIVOJLANISHNING XUSUSIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI. Geografiya va tabiiy resurslar jurnali , 2 (06), 80-85.

5. Komilova F. “Xalqaro turizm bozori”. –T.: TDIU, 2001. - 64 b.
6. Komilova, N. Q., Usmanov, M. R., & Karimov, I. E. (2021). “ZOMIN” TURISTIK-REKREATIONS ZONASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Журнал естественных наук, 3(5), 311-315.
7. Соколова М.В. “История туризма”: Учеб. Пособие-М.: Мастерство, 2002-352 с.
8. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. Journal of Critical Reviews, 7(6), 47-50.
9. Usmanov, M. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-4.
10. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. Estudios de economía aplicada, 39(6), 12.
11. Komilova, N. K., Usmanov, M. R., Safarova, N. I., Matchanova, A. E., & Murtazaeva, G. I. (2021). Tourist destination as an object of research of social and economic geography. Psychology and Education Journal, 58(1), 2058-2067.